

she'rlar bandidagi miyeralarning biri ikkinchisidan biror bo'g'in ortiq yo kam, biror turok, oz yoki ko'p bo'ladi. Qo'shma Vaznda yozilgan she'rlarda 1-va 2 – misralardagi turok, tartibi 3 – va 4 – misralarda takrorlanadi, shu tarzda ritm vujudga keladi. Erkin Vazn vazndan vaznga o'tib turadi. Barmoq tizimida uch bo'g'inlidan, ya'ni uchlikdan o'n yettilikkacha Vaznlar turkumi uchraydi. Aruz V. ida musiqiylik, ritm misralardagi cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning, ruknlarning bir tekisda takrorlanishi orqali hosil bo'ladi.

XX asrda ham aruz she'riy tizimi tadqiqiga bag'ishlangan bir qator ilmiy asarlar, monografiya va dissertatsiyalar maydonga keldi. Bu borada rus olimlari Y.E.Bertels, M.Stebleva, tojik adabiyotshunoslari Bahrom Sirius va M.Zehniy hamda o'zbek olimlaridan Abdurauf Fitrat, U.To'ychiev, S.Hasanov, A.Hojiahmedov kabilarni alohida qayd etish lozim. Mazkur olimlarning ayrimlari (M.Stebleva, S.Hasanov) alohida manbalarni tadqiq etish orqali, ayrimlari esa aruz she'riy vaznlar tizimini yaxlit o'rganish asosida (Fitrat, Bahrom Sirius, U.To'ychiev, A.Hojiahmedov) o'z tadqiqotlarini yaratishdi.

Bu borada, ayniqsa U.To'ychiev va A.Hojiahmedovning ishlarini alohida qayd etish lozim. U.To'ychievning "O'zbek poeziyasida aruz sistemasi" monografiyasi aruzning nazariy asoslari hamda turkiy she'riyatdagi tadrijiy taraqqiyotini o'rganishda qimmatli manba bo'lsa, A.Hojiahmedovning "O'rta maktabda aruzni o'rganish", "O'zbek aruzi lug'ati" kabi qator kitoblari aruzni o'rganish va o'rgatish uslubiyati uchun hozirda birlamchi manbalar sanaladi.

Aruz vaznida she'rning eng kichik bo'lagi bayt hisoblanadi. Bayt deganda biz, odatda, ikki misrani tushunamiz. Bayt ruknlardan, ruknlar esa juzvlardan tashkil topadi. Juzv so'zi arab tilida qism ma'nosini bildirib, jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llanadi. Juzvlar arab alifbosidagi harflarning harakatli (fatha, kasra, zamma) yoki sokin tarzda qo'llanishidan hosil bo'ladi. Demak, baytning hosil bo'lishini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

harf → juzv → rukn → bayt

Binobarin, aruz nazariyasini o'rganish uchun arab alifbosini, xususan, abjad hisobida ishtirok etadigan 28 ta asl arab harflari haqida tasavvur hosil bo'lishi zarur.

Abjad hisobi tarixiy sanalarni ifodalashning Sharq xalqlari orasidagi o'ziga xos usuli bo'lib, unda sanalar raqamlar bilan emas, harflar yoki harflar ishtirokida hosil bo'luvchi so'z va jumlar vositasida ifodalanadi. Abjad hisobida harflarning maxsus tartibi mavjud bo'lib, "abjad" so'zi ham mazkur tartibdagi dastlabki to'rtta harfni (alif, be, jim va he) ifodalovchi so'zdir. 28 ta harf jami sakkizta so'zda jamlanadi. Bular: abjad, havvaz, huttiy, kalamani, sa'fas, qarashat, saxxaz, zazag'. Demak, shu sakkizta so'zni va ularning arabcha yozilishini yod olgan kishi abjad hisobidagi harflar tartibini eslab qoladi. Raqamlar 1 dan 9 gacha, 10 dan 90 gacha, 100 dan 1000 gacha har bitta harfga birlashtiriladi.

Endi ayrim misollarni ko'rib o'tamiz:

Yusuf Amiriyning "Dahnoma" dostonida quyidagi bayt tarix sifatida keltirilgan:

Bitidik emdi tarixini kotib,

Erur tarixi uchun "zabti vojib".

"Zabti vojib" birikmasi arab yozuvida quyidagi harflar bilan ifodalanadi:

ب ا ج ز ط و

Bu harflar quyidagi raqamlarni ifodalaydi:

$$800 + 2 + 9 + 6 + 1 + 3 + 2 = 823$$

Demak, asar hijriy 823 yilda yozilgan. Bu melodiylar 1420 yilga to'g'ri keladi.

Izoh: $M = (H - H / 33) + 622$. Bunda H - hijriy, M - melodiylar yil. agistrlik dissertatsiya ishimizning asosi bo'lmish barmoq vazni va u bilan bog'liq bo'lgan ilmiy qarashlarni atroflicha o'rganib chiqdik. Avvalo, bu vazn badiiy adabiyotimizga yangi kirib kelgan vazn emas, balki qadimdan og'zaki adabiyotda asrlar davomida yashab kelayotgan o'zbek she'riyatining milliy vazni hisoblanadi. Bu vaznning yangiligi faqat yozma adabiyotdagina ko'rinadi. Barmoq yozma adabiyotimizga roppa - rosa bir asr ilgari kirib kelgandi. Ungacha esa aruz vazni yetakchilik qilar edi. Ushbu vaznning yozma adabiyotda joriylashuvi jadid adabiyotchilari nomi bilan bog'liq. Xususan, Cho'lpon, Fitrat, A. Avloniyning qarashlari va yaratgan asarlaridan buni bilish mumkin. Barmoq folklor namunalarida faqat lirik shaklda bitilgan turlaridagina uchraydi. Lirik folklor namunalariga xalq dostonlari, termalar, xalq qo'shiqlari va h.k. O'zbek she'riyatidagi hammaga birdek manzur bo'lgan, barchaning ko'nglidan joy olgan va eng ko'p yozilgan she'rlar aynan mana shu vaznga to'g'ri keladi. Barmoqning ikki sodda va qo'shma turlarida bitilgan she'rlar o'qilishi bilan ham, ijrosi, tinglovchiga yetib borishi hamda unga ta'sir qilish darajalari ham turlicha. Ikki turda ham bir xususiyat bor, ya'ni bo'g'inlarning soni she'rning ohangdorligi va musiqiyligiga ta'sir etadi. Qo'shma vaznda yaratilgan she'rlarda ko'proq jo'shqinlik bilinib turadi. Chunonchi, xalq qo'shiqlari va xalq dostonlarida ko'proq qo'shma vazndan foydalanilgan. Hozirda o'zbek she'riyatida barmoq bilan birga qo'llanilayotgan erkin va sarbast she'r turlari barmoq vaznidan o'sib chiqqan, asosi barmoqqa borib taqaladi. Ushbu vazn asrlar davomida o'lmay yashab kelganligi va zamonaviy o'zbek she'riyatida tezda joriylashuvi hamda unda yaratilgan ijod namunalarining keng ommaga tez yoyilishiga vaznning xalqchilligidadir.

MUHOKAMA

Har qanday adabiyot xalq og'zaki ijodidan boshlangani kabi o'zbek adabiyoti ham bundan chetda qolmaydi. O'rta Osiyo hududida yashab kelgan turkiy xalqlar, shuning bilan birgalikda o'zbek xalqining ham og'zaki poetik ijodi uzoq tarixga borib taqaladi. Arab aruzi uzoq arab xalq she'riyati namunalari asosida shakllangani singari, o'zbek she'riyati ham xalqimizning eng qadimgi xalq og'zaki ijodi asosida yuzaga chiqqan. Bunga misol sifatida yirik tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atut turk" asaridagi " Qoshug' " deb atalgan she'riy parchalar, maqollar, topishmoqlarni ham misol sifatida keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari Mahmud Qoshg'ariy xalq dostonlarining she'r tuzilishidagi

xususiyatlarini ham keltirib o'tgan. Yozma va og'zaki yo'lda yetib kelgan manbalar ham shuni ko'rsatib turibdiki, barmoq vazni uzoq yillik tarixga ega. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atut turk" asaridan ham shuni bilib olishimiz mumkinki, qadimgi O'rta Osiyoda yashab kelgan turkiy xalqlarning og'zaki ijodi boy tarixga ega ekanligini. Devonda keltirilishicha, O'rta Osiyoda yashagan, jumladan, Jig'il, Sirdaryo bo'yida yashagan Qarluq va Toshkent atrofida yashagan boshqa turkiy xalqlar tomonidan qoldirilgan turli xil she'riy parchalarni misol sifatida keltirib o'tishimiz mumkin. U davrda yaratilgan she'rlarning leksik xususiyati hozirgi o'zbek tili bilan bevosita aloqador ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan ushbu she'riy parchalar barmoq vaznining naqadar darajada uzoq o'tmishga ega ekanligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Devonda keltirilgan parchalarda barmoq vaznining besh, olti, yeti, sakkiz, o'n, o'n bir, o'n uch kabi turkumlarini uchratamiz. Devonda o'n bir va o'n uch kabi turkumlarni kam uchratamiz. Bundan shuni xulosa qilsak bo'ladiki, avval, kichik turkumlar va vaznlar, barmoq vaznining taraqqiyoti davomida esa yirik hajmli turkumlar va ular tarkibiga kirgan vaznlar yuzaga kelgan. Fitratning "Mirrix yulduziga" she'ri esa 1922-yilda nashr etilgan "O'zbek yosh shoirlari" to'plamidan joy olgan bo'lsada, Naim Karimovning izlanishlari natijalariga ko'ra ushbu she'rni 1920-yilda yozilgan deyishadi. Demak, har ikkala she'r ham bir yilda yaratilgan. Naim Karimov fikricha, "Go'zal yulduzga" she'ri Fitratning "Mirrix yulduziga" she'rining ta'sirida yozilgan bo'lishi kerak. Cho'lponning: "O'shanda biz, yosh o'zbek yozuvchilarning hammasi Fitrat ta'sirida edik" degan e'tirofi bu mulohazani qisman dalillaydi.

X U L O S A

Barmoq vazni Fitrat va Cho'lpon she'riyatida misolida yana ham rang-barang toblanishlarda namoyon bo'ladi. Avvalo aytish kerakki, Cho'lpon barmoqning 11 hijoli vaznidan keng foydalangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 11 hijolik barmoq vazni o'zbek she'riyatida eng ko'p tarqalgan vazn. Demak, 11 hijoli barmoq vazni ustuvorlasha boshlagan 20-yillardan o'zbek she'riyatining keyingi taraqqiyoti mobaynida ham ko'p qo'llaniladigan vazn bo'lib kelmoqda. Bizningcha, bu faqat mazkur vaznning o'ynoqiligi, qulayligi, ravonligi bilan emas, balki turkiy folkloridagi ildizlari bilan bog'liq. Cho'lpon ijodida erkin va sarbastda yozilgan she'rlar alohida tizimni tashkil etadi. Uning "Kuz guliga", "Sendan yiroqda", "Paranji", "Kuz yomg'iri", "Vahm", "Bezgak qo'ynida", "Ulug' yo'lda", "Bu kunning shoiri" kabi she'rlarida ham barmoq va sarbast aralash holda qo'llanilgan. Shoir aruz va barmoqda ifodalay olmagan tuyg'ularini erkin va sarbastda ifoda etib, o'ziga xos mahorat ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shu davrga kelib jadid she'riyatida, ayniqsa, barmoq vazni birmuncha oldinga siljidi. Bu davrda jadid shoirlari ijodidabarmoq vazni alohida mavqe egalladi. Bunga misol sifatida yuqorida sanab o'tilgan Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Botu, Abdulla Avloniy kabi tolmas ijodkorlarning ijod mahsullarini yaqqol dalil sifatida keltirsak yanglishmagan

bo'lamiz. Shunday qilib, jadid she'riyati barmoq vazni tarixida alohida davr sifatida esda qoldi. Va bu orqali biz kelajak avlodga salmoqli she'riy meros qolishida alohida ahamiyat kasb etdi.

Aynan shu davrga kelib barmoq vaznida yozilgan she'rlar salmog'i anchaginani tashkil etdi. Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, bu davrda jadid ijodkorlarining mashaqqatli mehnati samarasi natijasida ko'pgina ijod namunalari o'zbek kitobxonlari qo'lga borib tushdi. Bu asarlarning ko'pchiligining bosh g'oyasi, albatta, xalqning ma'naviyatini yuksaltirish, odamlarning dunyoqarashini o'stirish, ona vatanga nisbatan muhabbat, xalq farovonligi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Jadid istilohining ma'nosi adabiyotshunoslikdan ma'lumki, "Yangi" degan ma'noni bildiradi. Demak jadidchilarimiz xalqning ma'naviyatini yuksaltirishning asosiy manbasi sifatida adabiyotni ko'rishgan. Ularning fikricha odamlar diniy ta'lim bilan bir vaqtda, dunyoviy ta'limni ham yuqori planga chiqardi. Shuning uchun jadidlar o'zbekistonlik yuzlab yoshlarni chet elga, shu jumladan, Germaniya, Turkiya kabi mamlakatlarga o'zlarining hisobidan o'qishga yubordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh " Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz " Toshkent. O'zbekiston NMIU - 2017.
2. N. Afoqova " Jadid she'riyati poetikasi " Toshkent. " Fan " - 2005.
3. D. Quronov " Adabiyotshunoslikka kirish " Toshkent. 2003.
4. H. Umurov " Adabiyot nazariyasi " Toshkent. " Sharq " - 2002.
5. A. Cho'lpon " Buloqlar quchog'ida " Cho'lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2007
6. A. Cho'lpon " Saylanma. 1-jild." Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti -1922
7. A. Cho'lpon " Buloqlar " O'zbekiston davlat nashriyoti. Toshkent - 1924
8. E. Vohidov " Saylanma. 2-jild. She'r dunyosi. " Sharq. Toshkent - 2001
9. O. Madayev, T. Sobitova " Xalq og'zaki poetik ijodi " Toshkent. " Sharq " - 2010.

THE STUDY OF SEMANTICS. REFERENTIAL APPROACH TO MEANING

Okhunov Asilbek

FSU teacher

Yuldosheva Mushtariybegim

FSU student

Abstract: *The article aims to widely observe the general problems in learning semantics and its components, to investigate main difficulties of the concept of meaning and to try and give some solutions to the issues in terms of referential linguistic approach.*

Key words and expressions: *lexicology, semantics, context, referential approach, “basic triangle”, concept, linguistic sign, linguistic unit.*

The study of conventionalized and context- or use-dependent features of natural language meaning falls under the umbrella of semantics. There is a great deal of discussion on how, if at all, the semantics difference should be made due to the complexity of human language as a semiotic system. This argument mostly reflects opposing perspectives on whether meaning is a quality of language utterances or a function of speakers. It has taken a number of initiatives over the past 40 years to build more integrated and thorough theories of language usage and interpretation due to the fact that both views of meaning are necessary for a complete knowledge of language.

Acquiring new words and their meanings is the process of learning semantics. The most common way for this to happen is through exposure to spoken or written language, whether through direct instruction or by coming into contact with the words in a context where they are used naturally. In order to increase our vocabulary and comprehend the meaning of new words, it is crucial for language learners to investigate this area of lexicology.

Lexicology is the study of words, words that produce other words (derivational affixes), and word groupings or phrases. All of these linguistic constructions may be considered to have some sort of meaning; as they are all important, their form and meaning must both be studied. Semasiology is the term for the area of lexicology that focuses on the study of meaning. It should be noted that semasiology is emerging as the primary issue of linguistic inquiry at all levels of language structure, just as lexicology is starting to take a significant portion of linguistic scientists' efforts [1]. It is suggested that semasiology includes the study of morphology, syntax, and sentential semantics in addition to the study of lexicon as its subject matter.

However, because words are so important to language structure, when we use the term “semasiology” without any qualifiers, we often refer to the study of word meaning in and of itself, even if it is also extremely common to examine the semantics of other components like suffixes, prefixes, etc. One of the most contentious concepts in language